



**Inson qadri yanada mustahkamlangan Konstitutsiya bilan
barqaror ta'lim taraqqiyoti sari**

Sharipov Mirjalol Jamoladdin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

shakharipovmirjalol@gmail.com

Annototsiya: Ushbu maqolada yangilangan Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari, burchlari hamda majburiyatlari yanada kengaytirilganligi, mamlakatimizda “Inson qadri” uchun tamoyili har sohada bosh mavzu bo'layotganligi hamda ta'lim tizimi uchun yengilliklar sifatida asosiy qonunimizga normalarning kiritilganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: “Inson Qadri”, demokratik davlat, ta'lim taraqqiyoti, inklyuziv ta'lim, oliy yuridik kuch, o'qituvchilar qadr-qimmati, kuchli fuqarolik, huquqiy madaniyat, inklyuziv jamiyat.

Hayotdagi eng zo'r huzur-halovat ado etilgan burchdan zavqlanishdir.

U.Gezlitt

Hammamizga ma'lum Konstitutsiya – bu oliy yuridik kuchga ega bo'lgan davlatning bosh qomusidir. Bu uning normativ-huquqiy hujjatlar tizimida eng yuqori o'rinda turishi hamda boshqa har qanday huquqiy hujjatlardan ustunligini anglatadi. Konstitutsiyamiz xalqning mushtarak istaklarini, huquqlarini himoya qiluvchi, erkinliklarini kafolatlovchi



Asosiy hujjat ekan undagi har bir normaning amaldagi ijrosini ta'minlash mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy va doimiy mazmun-mohiyatiga aylanishi kerak. Konstitutsiyamizning 2-moddasida ham: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida ma'suldirlar",- deya norma sifatida kiritilgani yuqoridagi fikrimizni yanada mustahkamlaydi.

Amaldagi Konstitutsiyamiz 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qayta tahrir va yangilanishlar bilan yangidan tasdiqlanib, 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan. Ushbu umumxalq siyosiy-ijtimoiy faol harakat jamiyat va davlat uchun eng muhim masala bo'lganligi, ertangi kunimiz, har sohadagi o'zgarishlar, majburiyat va huquqlarimiz aks etadigan Asosiy qonun Konstitutsiyaning yangilanishi bo'lganligi uchun ham referendumga qo'yilgan va xalqimizning har bir qatlami bu jarayonda o'zining huquqiy madaniyati va siyosiy irodasini namoyon qilgan holda o'z taklif va xohishlarini bildirdilar.

Konstitutsiyamizning yaratilish tarixiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qaysidir davlatdan ko'r-ko'rona nomigagina ko'chirib olinmasdan, aksincha eng tarqqiy etgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Konstitutsiya qabul qilingandan so'ng uni ustuvorligini ta'minlash asosiy maqsadlardan biri sifatida maydonga chiqishi shubhasiz, albatta. Bugungi kunda ham mamlakatning o'tmishi va bugunini o'zida mujassamlashtirgan hamda kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'la oladigan bu asosiy qonunning ustuvorligini ta'minlash masalalari har sohada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Maqolamizning asosiy mavzusi bo'lgan inson huquqlari, erkinliklari, burch va majburiyatlari ya'ni "Inson qadri" hamda ta'lim tizimiga to'xtalamiz. Mamlakatimizda ayniqsa so'nggi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili har sohada bosh mazmun-mohiyatga aylanib boryotganligi hammamizga ayon. Konstitutsiyamizning 2-bo'limi ham "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlangan bo'lib, 5-11-boblarni



o'z ichiga oladi. Bu qomusimizdagi eng katta bo'limlardan biridir. Mamlakatimizda xalqaro huquq normalar va davlatimiz qonunlari asosida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida yangilangan Konstitutsiyada sud-huquq tizimi, moliya, pul va bank tizimi, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilish va boshqa tizimlar inson farovonligi uchun xizmat qiladigan barcha-barcha sohalar ularga yengillik yaratish va to'laqonli huquqlarini kafolatlanishi uchun muhim qayta tahrir va yangilanishlar kiritilganligi "inson farovonligi, inson uchun" tamoyillari yana bir pog'ona ko'tarilib mustahkamlanganligini bugungi kundagi islohotlardan ham bilsak bo'ladi. Yuqoridagi fikrimizning tasdig'i sifatida Konstitutsiyamizning 1-moddasida ko'rsatilganidek O'zbekiston-boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy davlat bu – eng avvalo inson salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyat va munosib hayot kechirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni barpo etish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish, umuman olganda inson qadr-qimmatini yuksaltirish hisoblanadi. Bu harakatlar xalqni davlatga yanada yaqinlashtiradi. Davlat siyosatiga xalqning hamohangligi yanada ortib, ko'zlangan maqsadlarga birgalikda erishiladi. Yaqinda Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsmanning vakolatlari kengaytirilib unga ko'ra:

- ombudsman, uning o'rinbosari va mintaqaviy vakillari har qanday vaqtda, hech qanday to'siqlarsiz va ogohlantirishsiz mahkumlar saqlanadigan joylarga tashrif buyurishi mumkin;
- ombudsman huzurida qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazo turlarining oldini olish maqsadida jamoatchilik guruhlarini tashkil etiladi;

Bu o'zgarishlar inson huquqlarini yanada kuchli qonunlar doirasida kafolatlash va himoya qilishdek muhim masalani mustahkamlaydi. Ta'kidlash joizki, jamiyatimizda ayollarning ro'lini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bu borada bir qancha yutuqlarga erishilishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimizda boshqaruv sohasida ham ayollarning



ro'li oshib, ular ham o'z salohiyatlarini to'laqonli namoyon qilib, xalq va davlat uchun sidqidildan o'z vazifalarini bajarishmoqda. Top-40 Markaziy Osiyoning yetakchi ayollari qatorida 15 ga yaqin turli soha va boshqaruv tizimidagi O'zbekistonlik ayollarning joy olganligi, bu boradagi islohotlarning to'g'ri yo'lda ekanligini ko'rsatadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" - deb belgilangani esa hokimiyatning "xalqchil davlat" prinsipiga sodiq ekanligini ko'rsatadi

Ta'lim tizimiga yengilliklar sifatida Konstitutsiyamizga normalarning kiritilishi ham aslida fuqarolarning farovonligi, ularga to'sqilarsiz ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish asl maqsad, albatta. Bu borada biz Konstitutsiyamizga alohida norma sifatida "o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy faravonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish"dek uzoq yillardan buyon kutilgan qilinishi kerak bo'lgan ish ayni vaqtda norma sifatida kiritilishi bu cheksiz hurmat ve ehtirom shu bilan birga ta'lim tizimi uchun barqaror yo'lga qo'yilgan mustahkam qadam desak adashmagan bo'lamiz. Pedagoglar hech shubhasiz har doim yuqorida, ulug'langanlar qatorida bo'lishga mutlaqo haqlidirlar. Ularga bo'lgan bugungi munosabat ertaga o'sib-ulg'ayotgan avlodlarda o'z aksini topadi. Biz o'qituvchilarga yetarlicha sharoit yaratib bersak va bu borada davlat bilan xalq birlashib harakat qilsa, farzandlarimiz ziyoli, o'z iqtidor va iste'dodlarini to'la namoyon qila oladigan davlatimiz olib borayotgan qaytmas siyosatiga hamohang harakat qiladigan shaxslar bo'lib yetishadi. Yangi darsliklarni shunday mukammal tayyorlash kerakki, keyinchalik bunga yana qaytmaylik. bugungi ta'lim qirq yildan keyin biz haqimizda so'zlaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Taraqqiyotning tamal toshi ilm-fan va ta'lim-tarbiyada ekan shu sohadagi barcha jihatlar chuqur o'ylangan bo'lishi talab etiladi.

Biz talaba-yoshlar uchun nafaqat biz Oliy ta'lim sohasidagi barcha uchun Konstitutsiyamizning 51-moddasida "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ta'lim olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq



akademik erkinlik, o'z-o'zini boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega" deb belgilanganligi har bir Oliy ta'lim muassalari o'z o'qitish uslubi, modullarni o'zlashtirish yuzasidan o'zlarining alohida uslub va metodlarga ega bo'lishlari, tadqiqotlar o'tkazish uchun zamin yaratdi.

Konstitusiyamizning muqaddimasiga yuzlanadigan bo'lsak, insonparvar davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurishdek muhim bir vazifa barcha xalqimiz oldida turgan ma'suliyatni namoyon etadi va bu ma'suliyatli ishda o'sib kelayotgan yoshlar orasida imkoniyati cheklangan yoshlar ham birdek ma'suldirlar, yani umummaqsad sari ular ham intilarilar qachonki ular "Inklyuziv ta'lim"ga ertaroq jalb etilsalar. Agarda imkoniyati cheklangan bolalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida uzoq vaqt ta'lim-tarbiya olsalar faqatgina o'ziga o'xshaganlar orasidagina yashashga o'rganib qoladilar. Ular ertaroq "Inklyuziv ta'lim" ga jalb etilsalar, ushbu ma'suliyatli ishda o'zlarini namoyon qila oladilar. "Inklyuziv ta'lim" ning asosiy maqsadi ham imkoniyati cheklangan yoshlarni ertaroq jamiyatga uyg'unlashtirish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlash va siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda ham befarq bo'lmasliklarini, ular ham davlatning, jamiyatning muhim bir bo'lagi ekanligini o'rgatishdir. Demak, "Inklyuziv ta'lim" ta'lim sohasida katta marralarga erishtiruvchi muhim yo'llardan biri ekan. Ayni shu sohadagi talaba sifatida meni xursand qilgani "Inklyuziv ta'lim" ning alohida norma sifatida kiritilganligi bo'ldi. Hozirgi kunda "Inklyuziv ta'lim" haqida jamiyatizga tushunchalar yetarli bo'lib, bu sohada qator maqsadli ishlar olib borilmoqda. Bosh qomusimizga binoan, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiyaning ta'minlanishi belgilangani "Inklyuziv ta'limdan-inklyuziv jamiyat" sari tamoyilini yanada kuchaytiradi va bunga jamiyatimiz hayrixoh.

Ta'lim tizimi zamonaviy tendesiyalarga asoslagan holda rivojlantirilib borilyotganligini 2024-yil uchun davlat byudejtidan ta'lim tizmi uchun jumladan:

-Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi- 46 trln 647 mlrd 414,5 mln so'm;



- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi- 6 trln 130 mlrd 330 mln so'm ajratilganligi biz yoshlarni yanad shijoatkor, vatan tuyg'usi yanada jo'sh urib turgan holda vatan ravnaqi yo'lida tinmasdan harakat qilishimiz lozim. Indira Gandi aytganidek: "Odamlar burchlarini unutishga-huquqlarini eslashga moyil bo'ladilar". Biz bunday avlod bo'lmasligimiz aksincha, maqsad va harakatlarimiz davlatva jamiyat bilan mushtarak bo'lishi, davlatimiz olib borayotga siyosatlariga, islohotlarga befarq bo'lmasdan, birgalikda harakat qilishimiz, ertangi kunimiz albatta biz kutgandanda a'lo bo'lishiga ishonib intilishimiz lozim. Huquqiy ong va huquqiy madaniyati shakllangan doiralarning kengayishi uchun yuqoridagi biz uchun hammamiz uchun, bizning sha'nimiz, qadr-qimmatimiz, huquqlarimiz kafolati, munosib yashashimiz uchun tasdiqlangan normalar jamiyatimizning har bir qatlamiga yetib borishi va tahlil qilinib munosabat bildirilishi kerak nazarimda.

Hech birimiz har qanday ijtimoiy holatimizdan, mavqeimizdan, jinsi, irqi millati, tili, dinimizdan qa'ti nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ekanmiz, davlatimiz rivoji hamda yaxshi yashashimizni, rivojlanishimizni asosini tashkil qiladigan bu-Konstitusiyamiz haqida gap ketar ekan befarq bo'lmasligimiz, davlat va jamiyat siyostaiga hamohang bo'lishimiz kerak. Shundagina biz kuchli fuqarolik va ta'lim tizimi taraqqiy etgan, ochiq va oshkora davlat tuzishga muvaffaq bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.B.Goipova Inklyziv ta'lim. Gospital pedagogika: darslik / N.B.Goipova – Namangan, 2024.
2. https://uza.uz/oz/posts/taraqqiyotning-tamal-toshi-ilm-fan-va-talim-tarbiyada_440243
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2023
4. Dunyo Siyosat Jamiyat" Guliston-2024 "Ziyo nashr-matbaa" XK
5. https://constitution.uz/oz/pages/farovon_hayot
6. "Constitution stable road pledge.Humanism in the new constitution" Sharipov Mirjalol Jamoladdin o'g'li "ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКИ В 21- ВЕКЕ"